



“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

# OILA, XOTIN-QIZLAR VA IJTIMOIY HAYOT

elektron ilmiy jurnal

2/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan. “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

ISSN 9874-4126

TOSHKENT

## TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

## TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna (Bosh muharrir o'rinbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimqulovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

FARFIYEV Bahromjon Atxamdjanovich – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*

ISHQUVATOV Valiqul Turdiyevich – *tarix fanlari doktori, professor.*

KARAMYAN Marietta Xachaturovna – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

MUSLIMOV Narzulla Alikhanovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

NURMATOVA Mukarram Akhmedovna – *falsafa fanlari doktori, professor.*

NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*

RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*

SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

SODIQOVA Shohida Markhobayevna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

ZOHIDOV Azamatjon Azamovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

## ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (Главный редактор) – *доктор педагогических наук, профессор.*

## ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*

Мусурманова Айниса Мусурмановна (Заместитель главного редактора) – *доктор педагогических наук, профессор.*

Абдураманов Хамид Худайbergenovich – *доктор экономических наук, профессор.*

Бегимкулов Узокбой Шоимкулович – *доктор педагогических наук, профессор.*

Фарфиев Бахромжон Аткамджанович – *доктор социологических наук, доцент.*

Ишкuvatov Валикул Турдыевич – *доктор исторических наук, профессор.*

Карамян Мариэтта Хачатуровна – *доктор психологических наук, профессор.*

Муслимов Нарзулла Алиханович – *доктор педагогических наук, профессор.*

Нурматова Мукаррам Ахмедовна – *доктор философских наук, профессор.*

Нарматов Нуриддин Соатмурадович – *доктор юридических наук, профессор.*

Рахманкулова Нируфар Ходжи-Акбаровна – *доктор юридических наук, доцент.*

Сайдивалиева Хуршида Ходжиакбаровна – *доктор философии юридических наук (PhD).*

Содиқова Шохида Мархобаевна – *доктор социологических наук, профессор.*

Зоҳидов Азаматджон Аъзамович – *доктор экономических наук, профессор.*

## THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna (Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

## MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*

Musurmanova Aynisa Musurmanovna (Deputy Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Abduramanov Khamid Khudaybergenovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

Begimkulov Uzokhboy Shoimkhulovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Farfiyev Bakhromjon Atkhamdjanovich – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*

Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*

Karamyan Marietta Khachaturovna – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*

Muslimov Narzulla Alikhanovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Nurmatova Mukharram Akhmedovna – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*

Narmatov Nuriddin Soatmuradovich – *Doctor of Law Sciences, Professor.*

Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*

Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*

Sodikova Shokhida Markhobayevna – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*

Zokhidov Azamatjon Azamovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

*SOTSIOLOGIYA*

**Egamberdiyeva N.M., Xonturayev B.** Gender yondashuv asosida yoshlarni kasbga yo'naltirishning ijtimoiy-iqtisodiy masalalari..... 4

**Jurayeva Sh.S.** Globallashuv sharoitida migratsion munosabatlarning oilalar barqarorligiga psixologik ta'siri..... 14

*OILA VA JAMIYAT*

**Nurullayeva U.N.** Xotin-qizlarga nisbatan oiladagi tazyiq va zo'rvonlik holatlari: sabab va oqibatlar, yechim yo'llari ..... 22

**Kurbanov E.E.** Yangi O'zbekistonda demokratik islohotlarning nazariy-siyosiy evolyutsiyasi ..... 34

**Tashkenbayeva D.B.** Turmush o'rtog'i nogiron yoki ruhiy kasal bo'lgan ayollar bilan ishlash bo'yicha metodik tavsiyalar..... 44

*PSIXOLOGIYA*

**Abdusamatov X.U., Sharapova D.B.** Uy bekasi sindromining oldini olish bo'yicha psixologik tavsiyalar ..... 53

**Odilbekov M.M.** Turmush o'rtog'i vafot etgan ayollar bilan psixologik ishlash mexanizmlari..... 65

**Abduraxmonova F.A.** Turmush o'rtog'i bedarak yo'qolgan ayollar bilan ishlash bo'yicha psixologik tavsiyalar ..... 74

**Sa'dullayeva J.I.** Turmush o'rtog'i jazo muddatini o'tash muassasasidagi ayollar bilan ishlashda psixologik tavsiyalar ..... 84

*MAHALLA VA OILA HUQUQI*

**Alimov S.K.** Mamlakatimizda tazyiq va zo'rvonlik holatlaridan jabrlangan ayollarga yordam berish tizimining huquqiy tahlili..... 92

*PEDAGOGIKA*

**Yakubov O.** Ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari ..... 99

**Odiljon Yakubov Tolibjon o'g'li,**  
*A. Avloniy nomidagi Xalq ta'limi muammolarini o'rganish  
va istiqbollarini belgilash ilmiy tadqiqot instituti magistranti*  
e-mail: [odiljonyakubov0227@gmail.com](mailto:odiljonyakubov0227@gmail.com)



# TA'LIMDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

**Annotatsiya.** *Maqolada ta'lim jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyasi vositalaridan foydalanishning zamonaviy usullari ahamiyati atroflicha yoritilgan.*

**Аннотация.** *В статье подробно рассматривается значение современных методов использования средств информационных и коммуникационных технологий в образовательном процессе.*

**Annotation.** *The article details the importance of modern methods of using information and communication technology tools in the educational process.*

**Tayanch so'zlar:** *masofaviy ta'lim, internet, masofadan o'qish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, elektron darslik, onlayn ta'lim.*

**Ключевые слова:** *дистанционное образование, интернет, дистанционное обучение, информационно-коммуникационные технологии, электронный учебник, онлайн-обучение.*

**Keywords:** *distance education, internet, distance learning, information communication technologies, electronic textbook, online education.*



*Hozirgi  
globallashuv  
davrida internet  
tarmog'i orqali  
masofadan turib,  
onlayn yoki  
oflayn o'qish  
imkoniyatlarining  
paydo bo'lishi,  
ta'lim oluvchi  
va ta'lim  
beruvchilarga juda  
katta imkoniyat  
bermoqda.*

**Kirish.** Jahon ta'lim tizimida onlayn ta'lim masofaviy ta'limning eng yangi shakllaridan hisoblanib, bir necha o'n yillardan beri qo'llanib kelinadi. Ushbu ta'lim turi elektron usulda o'rganish deb ataladi va u internet orqali amalga oshiriladi. Hozirda ta'lim oluvchilarning ko'p qismi ta'lim olayotgan onlayn ta'lim o'qituvchilarning dars berish usullari va o'quvchilarning o'rganish usullarida pedagogik o'zgarishlarga yo'l ochdi. Ushbu ta'lim usulida tyuterlar va o'qituvchilar rahbarlik qiladi, ta'lim oluvchilar shunchaki passiv o'quvchilar sifatida emas, balki faol tarzda hamkorlikda o'qib-o'rganishadi.

**Asosiy qism.** Hozirgi globallashuv davrida internet tarmog'i orqali masofadan turib, onlayn yoki oflayn o'qish imkoniyatlarining paydo bo'lishi, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchilarga juda katta imkoniyat bermoqda. Hozirgi kunda dunyo bo'ylab elektron ta'lim olish imkonini beruvchi juda ko'plab elektron ta'lim platformalari faoliyat yuritmoqda. Elektron usulda ta'lim olishning eng afzal tomoni ta'lim oluvchi ayrim sabab bilan darsda qatnasha olmasa yoki darsni yaxshi o'zlashtira olmasa, platformaga kirib, video-ma'ruzalardan qayta-qayta foydalanishi mumkin. Bu esa ta'lim olish samaradorligini sezilarli darajada oshishiga sabab bo'ladi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Ta'lim tizimida fan va ishlab chiqarishning integratsiyasiga e'tibor qaratish, ta'lim jarayoniga elektron ta'lim texnologiyalarini joriy qilish, masofaviy ta'limni qo'llab-quvvatlash zarur. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini masofaviy ta'lim jarayonida qo'llashning ikkita zaruriy sharti mavjud:

texnik jihozlar bilan taminlanganlik;

maxsus dasturiy ta'minotlarning mavjudligi.

So'ngi yillarda rivojlangan mamlakatlarda internet orqali ta'lim olish jadal rivojlanmoqda va u "Elektron ta'lim" (e-Learning) atamasi bilan kirib keldi. Elektron ta'limni tashkil etish uchun ko'plab tizimlar mavjud. Bularga misol qilib Mualliflik dasturiy mahsulotlari (Authoring tools), Virtual ta'lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar – LMS (Learning Management Systems), Ichki kontentning boshqaruv tizimlari – CMS (Content Management Systems)ni keltirish mumkin.

**LMS** – bilim olish faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun mo'ljallangan tizimlar hisoblanadi. Ular orqali ta'lim oluvchilar va ta'lim

beruvchi o'rtasida muloqot rejimi o'rnatiladi hamda o'quv materiallari majmuasi, videodarslar, ma'ruza materiallari, taqdimotlar, elektron kitob va qo'llanmalar uzatiladi va qabul qilinadi.

**Masofaviy ta'lim** – masofadan turib o'quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o'qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta'lim oluvchilarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi ta'lim majmuasidir.

**Masofaviy o'qish** – bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta'lim tizimidir. U ta'lim oluvchiga ma'lum standartlar va ta'lim qonun-qoidalari asosida o'quv shart-sharoitlari va o'qituvchi bilan muloqotni ta'minlab berib, o'quvchidan ko'proq mustaqil ravishda shug'ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o'qish jarayoni ta'lim oluvchini qaysi vaqtda va qaysi joyda bo'lishiga bog'liq emas.

**Video va audio konferensiyalar** – bu Internet va boshqa telekommunikatsion aloqa kanallaridan foydalangan holda ikkita uzoqlashgan auditoriyalarni bir-biri bilan bog'lab ta'lim olish yo'li. Video va audio konferensiyalar uchun katta hajmda maxsus texnika, yuqori tezlikka ega bo'lgan aloqa kanali va o'qitishni tashkil qilish uchun xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislarni jalb etish kerak bo'ladi.

**Elektron pochta orqali ta'lim** – bu internetning elektron pochta xizmatlaridan foydalanib, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasida xatlar orqali muloqot o'rnatib ta'lim olish yo'li. Elektron pochta yordamida har xil test, vazifa, savol-javob xabarlarini, shuningdek, o'quv adabiyotlari va o'quv qo'llanmalar fayllarini (matn, grafika, multimedia, dasturlar va boshqa ko'rinishida) jo'natish va qabul qilish orqali ma'lumot almashish mumkin.

**Simulyator, elektron darsliklar va o'quv dasturlar** – bu, asosan, nazariy va amaliy bilimlarni qamrab olgan o'quv manbalari hisoblanib, kompyuter dasturlari orqali o'quvchilarga onlayn va offlayn holatida foydalanish uchun ishlab chiqiladi. Simulyator va elektron darsliklar hozirgi kunda ta'lim sohasida juda keng qo'llanyapti.

**Internet masofaviy ta'lim portallari** – bu Internet tarmog'idagi ko'plab saytlarda joylashgan katta hajmdagi ma'lumotlardan foydalanish va yangi bilimlar olish yo'li. Ushbu saytlarning asosiy vazifasi – ta'lim jarayonini tashkil qilish, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasida elektron onlayn muloqotni o'rnatish, o'qituvchilarga o'quv materiallarni

*Masofaviy o'qish – bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta'lim tizimidir.*

*Masofadan o'qitishning afzalligi shundaki, unda ta'lim oluvchi o'ziga qulay vaqtda va hattoki ishdan ajralmagan holda o'qishi mumkin. Aynan shu afzalliklari tufayli bu uslub dunyoda hozirgi kunda keng tarqalgan. Ko'pgina yirik korxonalar mutaxassislari malakasini oshirish yoki o'zgartirish uchun shu uslubdan foydalanib, yiliga millionlab dollarlarni tejamoqdalar.*

joylashtirish va o'quvchilarga shu ma'lumotlar bilan ishlashga hamda boshqa masofaviy ta'lim servislardan foydalanishga imkoniyat yaratishdan iborat.

**Masofadan o'qitish uslubiy materiallari quyidagilardir:**

darslik;  
audio va video darsliklar;  
onlayn darslar (Internet sahifa);  
elektron kutubxonalar;  
testlar;  
multimedia vositalari;  
elektron darsliklar.

Masofaviy ta'lim, uzluksiz ta'lim tizimi shakllaridan biri hisoblanib, insonning bilim olish va axborotlardan foydalanish huquqini amalga oshirishga yo'naltirilgan. Masofali ta'lim olishni istagan inson uchun kasbiy faoliyati bilan bir qatorda asosiy yoki qo'shimcha ta'lim olish imkonini beradi.

Masofadan o'qitishning afzalligi shundaki, unda ta'lim oluvchi o'ziga qulay vaqtda va hattoki ishdan ajralmagan holda o'qishi mumkin. Aynan shu afzalliklari tufayli bu uslub dunyoda hozirgi kunda keng tarqalgan. Ko'pgina yirik korxonalar mutaxassislari malakasini oshirish yoki o'zgartirish uchun shu uslubdan foydalanib, yiliga millionlab dollarlarni tejamoqdalar.

Masofadan o'qitishning yana bir afzallik tomoni unda o'qish muddatini o'quvchi o'zi belgilaydi, ya'ni talaba ixtiyoriy paytda o'qishni boshlaydi, materiallarni o'qituvchi nazoratida o'zlashtiradi. O'zlashtirish topshiriqlarni, testlarni bajarishga qarab aniqlanadi. O'quvchi berilgan dasturni qanchalik tez o'zlashtirsa, shunchalik tez o'qishni tugatadi va guvohnoma oladi. Dasturni o'zlashtirmasa, unga mustaqil ishlab, o'qishni davom ettirishga imkoniyat beriladi.

Masofadan o'qitishda, odatda, ishlayotganlar, onalar, o'qiyotganlar biror mutaxassislikni egallash yoki malakasini oshirish maqsadida o'qiydi. Bu uslub nogironlar uchun juda qulaydir.

**Masofadan ta'lim oluvchilar auditoriyasini quyidagi ijtimoiy guruhlarga mansub bo'lgan shaxslar tashkil qilishi mumkin:**

ikkinchi mutaxassislik, qayta tayyorlov, malaka oshirish yoki qo'shimcha ma'lumot olishni xohlovchilar;

mintaqaviy hokimiyat va boshqaruv rahbarlari;

an'anaviy ta'lim tizimining imkoniyatlari cheklangani sababli ma'lumot olmagan yoshlar (Covid – 2019 pandemiyasi sababli, respublikamiz bo'ylab e'lon qilingan karantin cheklavlari davrida televideniye orqali tashkil qilingan onlayn dars jarayonlari);

o'z ma'lumot maqomini zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish istagida bo'lgan firma va korxonalar xodimlari;

ikkinchi parallel ma'lumot olishni xohlagan tinglovchilar;

markazdan uzoqda, kam o'zlashtirilgan mintaqalar aholisi;

erkin ko'chib yurishi cheklangan shaxslar;

jismoniy nuqsonlari bo'lgan shaxslar;

harbiy xizmatda bo'lgan shaxslar va boshqalar.

*1-jadval.*

### **Onlayn usulda ta'lim olishning afzalliklari va cheklavlari**

<b>Onlayn usulda ta'lim olishning afzalliklari</b>	<b>Onlayn usulda ta'lim olishning cheklavlari</b>
➤ asosiy faoliyatdan ajralmagan holda ta'lim olish;	➤ ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi o'rtasida yuzma-yuz muloqotning kamligi;
➤ ta'lim oluvchi bo'sh vaqtida uy sharoitida yoki ish joyida ta'lim olishi mumkin;	➤ ta'lim oluvchidan resurs materiallari bilan mustaqil ravishda ishlashda qunt va izchillikni talab etadi;
➤ har bir ta'lim oluvchiga individual yondashuv;	➤ ta'lim oluvchi kompyuter texnikasiga ega bo'lishi shart;
➤ resurs materiallar: audio, video materiallardan foydalanib mustaqil shug'ullanish imkoniyati;	➤ ta'lim oluvchida internet tarmog'iga ulanish imkoniyaga ega bo'lishini talab etadi;
➤ ta'lim oluvchi duch kelgan qiyinchiliklar bo'yicha maslahatchilardan telefon orqali, xat orqali yoki elektron pochta orqali maslahatlar olish;	➤ tarmoq orqali ta'lim berish muhiti mukammal ishlab chiqilgan tuzilishga ega bo'lishi va ta'lim oluvchilarga tezkor muloqot qilish imkoniyatini ta'minlashi lozim;
➤ trening-seminarlar, konferensiyalar, audio, video konferensiyalar tashkil etish va boshqalar.	➤ ta'lim oluvchi yozma muloqot qilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Onlayn ta'lim uzluksiz ta'lim olishning xavfsiz va hayotiy varianti sifatida paydo bo'ldi, chunki COVID-19 pandemiyasi shaxsiy va

*AQShning elektron ta'lim bozoridagi ulushining qariyb 59 foizi kontent bilan bog'liq onlayn ta'lim mahsulotlariga to'g'ri keladi. AQShda onlayn ta'lim rivojlanishining asosiy sabablaridan biri sifatida talabalarining onlayn kurslarda o'qishga bo'lgan qiziqishlarining yuqoriligidir.*

professional dunyoni tubdan o'zgartirdi. Onlayn ta'limning rivojlanishi uchun 2019-yil ma'lumotlariga ko'ra AQSH, Hindiston, Xitoy, Janubiy Koreya va Buyuk Britaniya eng ko'p sarmoya kiritgan davlatlar hisoblanadi.

AQShning elektron ta'lim bozoridagi ulushining qariyb 59 foizi kontent bilan bog'liq onlayn ta'lim mahsulotlariga to'g'ri keladi. AQShda onlayn ta'lim rivojlanishining asosiy sabablaridan biri sifatida talabalarining onlayn kurslarda o'qishga bo'lgan qiziqishlarining yuqoriligidir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, amerikalik talabalarining 30% dan ortig'i kamida bitta onlayn kursga yoziladi.

Mamlakatimizda ham ta'lim olishning masofaviy shakllari tashkil qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarori<sup>1</sup> ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi 25-son qarori<sup>2</sup>ga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi hamda A.Avloniy nomidagi Xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti (hozirda Abdulla Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti) tomonidan "**Uzluksiz kasbiy ta'lim**" maxsus elektron platformasi ishlab chiqildi va <https://onlinedu.uz> veb manzili orqali ishga tushirildi. Ushbu platforma Xalq ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan rahbar kadrlar va pedagog xodimlarning onlayn malaka oshirishini tashkil etish tizimi sifatida yaratildi. Tizimda barcha turdagi gadjetlar orqali ishlash mumkin. Tizimda ro'yxatdan o'tish sodda ko'rinishda ishlab chiqilgan bo'lib, tinglovchi mustaqil tarzda onlayn yoki oflayn malaka oshirish turini tanlashi mumkin.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarori <https://lex.uz/docs/-5239538>

<sup>2</sup> Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi 25-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-5828765?ONDATE=18.01.2022%2000>

Shuningdek, kasbiy kompetentlikni aniqlash uchun diagnostika testlari, ehtiyojlarga asoslangan kurslarni taklif etish imkoniyatlari, mavzular bo'yicha video-darslar, adabiyotlar hamda taqdimotlar mavjud. Tinglovchi belgilangan kredit-ballni to'plagandan so'ng sertifikatni elektron shaklda yuklab olish imkoniyatlari shakllantirilgan. Bundan tashqari, tinglovchi va tyutorlar o'rtasida o'zaro fayl almashish va muloqot qilish imkoniyatlari ham kiritilgan. Muassasa rahbarlari va fan metodistlari uchun o'z ta'lim muassasalaridan ta'lim olayotgan xodimlarni nazorat qilish imkoniyatlari ham mavjud. 2021-yil 1-mart sanasidan fan metodistlari uchun, 2021-yil 15-iyuldan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi direktorlari va kimyo-biologiya fani o'qituvchilari uchun 2021-yil 1-oktabrdan boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun onlayn malaka oshirish imkoniyatlari yo'lga qo'yildi.

**Xulosa.** Ta'lim tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari sifatida onlayn ta'lim olish, masofadan turib malaka oshirish, ijtimoiy tarmoqlar, elektron ta'lim platformalari kurslarida o'qish kabilarni aytish mumkin. Ushbu usullarda ta'lim olish an'anaviy usulda ta'lim olishdan arzon va qulayligi bilan ajralib turadi. Bunda katta yoshli ta'lim oluvchi ish faoliyatidan ajralmagan holda malakasini oshirishi, qo'shimcha kurslarda qatnashishishi, qayta tayyorlov kurslarida o'qishi mumkin. Ta'limning bu turi masofa, mintaqa, o'quvchilar yosh chegarasi, ijtimoiy mavqeyini tanlamaydi. Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslar, olis hududlarda va nochor oilalarda yashovchi shaxslar ham ta'lim olish imkoniga ega bo'lishadi. Ta'lim oluvchi o'qish muddatini o'zi belgilaydi, lekin platformada topshiriqlar uchun belgilangan muddatlarga amal qiladi.

Onlayn ta'lim olishning eng yaxshi tomoni ta'lim oluvchi qandaydir sabab bilan darsda ishtirok eta olmasa yoki yaxshi tushunmasa, mavzuga oid video, taqdimot ko'rinishidagi ma'lumotni qayta-qayta ko'rib, o'rganib chiqishi mumkin.

***Ta'lim tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari sifatida onlayn ta'lim olish, masofadan turib malaka oshirish, ijtimoiy tarmoqlar, elektron ta'lim platformalari kurslarida o'qish kabilarni aytish mumkin.***



## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarori <https://lex.uz/docs/-5239538>.
2. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi 25-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-5828765?ONDATE=18.01.2022%2000>.
3. Маннанова Н.Х. Ўзбекистонда педагог кадрлар малакасини ошириш тизимида масофавий таълимнинг шаклланиши ва ривожланиши. (Phd). ...дис. – Тошкент, 2019. – 143 б.
4. Alkarov E.M. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida pedagog kadrlar uzluksiz kasbiy rivojlanishini boshqarish samaradorligini oshirish. (PhD)... diss. – Toshkent, 2021. – 140 b.
5. Sheraliyev O.Sh. Masofaviy ta'lim tizimida tinglovchilar bilim darajasini nazorat qilishda avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish metodikasi. (magistr)... diss. – Qo'qon, 2021. – 82 b.



“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIIY-TADQIQOT INSTITUTI  
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬИ И ЖЕНЩИН»  
“FAMILY AND WOMEN” RESEARCH INSTITUTE

---

**OILA, XOTIN-QIZLAR VA  
IJTIMOIY HAYOT**  
**СЕМЬЯ, ЖЕНЩИНЫ И ОБЩЕСТВЕННАЯ ЖИЗНЬ**  
**FAMILY, WOMEN AND SOCIAL LIFE**

*elektron ilmiy jurnal*  
*электронный научный журнал*  
*electronic scientific journal*

2/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan. “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации» № 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года. Журнал “Семья, женщины и общественная жизнь” считается продолжение журнала “Социальное управление”.

*Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных, фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.*

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021. The journal «Family, women and social life» is a continuation of the journal «Social management».

*This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions of makhalla, family and gender equality.*

---

**MUASSIS:**

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas‘ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,  
Jo‘rayeva M., Razzakova N.,  
Sobirova E., Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizayner: **Yakubov O.**

*Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materialari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 21.08.2022.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 11,6.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.

“SANBOOK EXCLUSIVE PRINT” XK bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Yangıhayot tumani, 5-qurılısh hududi, 9-uy.